

## OILADAGI ZO'RAVONLIKNING FARZAND TARBIYASIGA SALBIY TA'SIRIDA GENDER STEREOTIPLARINING O'RNINI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-483-487>

**Maxsudova Mutabarxon**

NamDU Psixologiya kafedrasi dotsenti, p.s.f.n

[Maxsudova60@gmail.com](mailto:Maxsudova60@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola hozirgi globallashib kelayotgan zamonda oiladagi gender muammolari stereotiplarining oilaning mustahkamligiga ta'siri hamda osha oilada o'sib ulg'ayayotgan farzandlarning tarbiyasi va ularning ongiga qay darajada ta'sir qilish tuzilmalarini hamda ularni oldini olish haqida bayon qilingan. Shuningdek, zo'ravonlikni oldini olish usullari haqida ham malumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** gender stereotiplari, identifikatsiya, jins, oila, farzand, ijtimoiy rollar, maskulinlik, femininlik, zo'ravonlik.

**Annotation:** This article examines the impact of gender stereotypes within the family on family stability in the context of the modern globalizing world. It also analyzes how these stereotypes influence the upbringing of children growing up in such families, their consciousness, and the mechanisms through which this influence occurs, as well as ways to prevent negative effects.

**Keywords:** gender stereotypes, identification, gender, family, child, social roles, masculinity, femininity.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается влияние гендерных стереотипов в семье на устойчивость семьи в условиях современного глобализирующегося мира. Также анализируется их воздействие на воспитание детей, растущих в таких семьях, формирование их сознания, механизмы данного влияния и пути предотвращения негативных последствий.

**Ключевые слова:** гендерные стереотипы, идентификация, пол, семья, ребенок, социальные роли, насилие, маскулинность, фемининность.

### KIRISH

Hozirgi zamonda jamiyatimizning eng asosiy muammolardan biri bu oilalarni mustahkamlash va ularni ajrimlardan saqlab qolish, shuningdek, zo'ravonliklarni oldini olishdan iborat. Bunday ishlarni amalga oshirishda hozirda turli xil ishlar strategiyalar ishlab chiqib amalga oshirilmoqda. Amalga oshiriladigan ishlarning natijasi esa asta sekin ko'rina boshlamoqda. Oilaning mustahkamligi genderlar orasidagi o'zaro nizolarni bartaraf etish hamda ularda mavjud bo'lgan stereotiplarning qay darajada ahamiyatli ekanligi shuningdek, stereotiplarning toqnashuvi natijasida ikki jins vakilining konfliktlari farandlarga ham ta'sir qiladi. Natijada oiladagi farzandlarning ham tarbiya va ularning ongi zaharlanishni boshlaydi. Bunday jarayonni oldini olishda esa jamiyatimizda qabul qilinayotgan qaror qonun hamda yordamlar ishlab chiqilib taqdim etilyapti. Keyingi paytlarda ayniqsa oilaviy zo'ravonlik uchrab turibdi. Bu albatta oiladagi farzand tarbiyasiga

kattalarning befarqligik, ota-onalarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarning izdan chiqshi, bir-birini tushuna olmaslik sabab bo'lmoqda. Maqolaning keying qismida bu haqida batafsil yoritilgan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Muammoni ko'rib chiqishdan avval gender stereotiplari nima ekanligi va farzandlarga qanday ta'sir qilishi haqida batafsil ko'rib chiqamiz. *Gender stereotiplari* bu - ikki jins vakililarining shaxs xususiyatlari va xarakteriga xos bo'lgan jamiyatda qabul qilingan normalar asosidagi xulq-atvor hamda rollar uchun belgilab qo'yilgan umumlashtirilgan tasavvurlar yig'indisiga aytiladi. Misol uchun ayollar uchun nazokatlilik, noziklik kabi xislatlar va ayollarning uydagi „uy bekasi“ roli bo'lsa erkaklarga esa, mardlik, qo'rqqmaslik hamda „oila boquvchisi“ kabi rollar mos hisoblanadi. Bu tushunchaga olimlar o'zlarining fikrlarini bildirishgan. A.V.Makarenko gender stereotiplariga quyidagicha ta'rif bergan „idrok etish xususiyati maqsadga intiluvchanlikning shuningdek, mazkur madaniyatda qabul qilingan muayyan jins vakili turmushi va faoliyatidagi me'yor va qoidalarni hisobga olgan xolda inson xulq-atvorining dasturiy anglashidir.“<sup>[1]</sup>

Umumiy qilib aytganda, gender xususiyatlariga ayollar va erkaklarni ifodalovchi xususiyatlar yig'indisiga aytiladi. Shuningdek, gender stereotiplarida erkaklar va ayollar nimalari orqali farq qilishlarini, ularning gender xususiyatlari bu xususiyatlarining oiladagi o'rni hamda ularning ahamiyati tushuniladi.

Gender stereotiplari asosan 3 ta katta turga bo'linadi:

- maskulinlik va femininlik;
- ijtimoiy rollar;
- mehnatning muayyan turi bilan shug'ullanish.

Maskulinlik va femininlik – ayollar va erkaklar uchun xos bo'lgan xususiyatlar yig'indisiga aytiladi. Qisqa qilib aytganda, latofatlilik va mardlik deb yuritiladi. I.S.Konn bu ikki tushuncha maskulinlik va femininlikka quyidagicha yondashgan:

Maskulinlik erkaklar uchun xos xususiyat, femininlik esa ayollarga xos xususiyatlar yig'indisidir. Maskulinlik va femininlik tushunchasi turli ijtimoiy tasavvurlar fikrlarini o'z ichiga oladi. Erkaklar va ayollar ularga qanday xususiyatlarini olganliklari bilan ifodalanadi.<sup>[3]</sup>

Bu tushunchalardan ko'rinib turibdiki, oiladagi gender muammolarining asl sabablari ularning stereotiplariga mos kelmasliklari hamda bir birlarini no'tog'ri tushinishlari natijasida kelib chiqadi. Oilalarda erkaklar o'z vazifalarini to'liq qilmasliklari ayollarning noo'rin gaplari hamda hatti - harakatlari, hozirda eng ko'p tarqalgan uchinchi shaxs aralashuvi natijasida ham bu stereotiplarning buzilishi va ularni notog'ri talqlini oilalarda ajrimlarga, zo'ravonlik holatlariga hamda sovuqchilik tushishiga olib keladi.

Ijtimoiy rollar- bunda erkak va ayollarning ijtimoiy hayotda bajaradigan ro'llarining yig'indisiga aytiladi. Misol uchun ayollarning azaldan ijtimoiy hayotdagi ro'li oila bekasi, ona, uy ishlarini qiluvchi hamda tarbiya beruvchi shaxs

sifatida qaralgan. Ayollarning ishlashi hamda jamiyatdagi ro'li unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan. Erkaklarning jamiyatdagi rollari esa asosan oilani boqish va ta'minlashga asoslangan. Muayyan bir yo'nalishlarga tegshli bo'lgan turli xildagi oila hamda ijtimoiy rollarning erkaklar va ayollarga nisbatan turli xil bo'ladi. 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan odamlar o'rtasida „gender rollarini anglashga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar” tadqiqot o'tkazilgan. O'tkazilgan so'rovnomalar natijasida oilada bajariladigan maishiy ishlarni taqsimlash bo'yicha differansatsiya vujudga kelgan. Shunga ko'ra ayollarga faqat uyni tozalash, ovqat qilish, dazmol qilish, idish yuvish kabi rollar ta'kidlangan. Erkaklar esa uyni ta'mirlash, oilani boqish kabi vazifalarni bajarishini aytishgan. Sorov natijalarida umumiy 90% odamlar ayollarni uy bekasi, erkaklarni oila boquvchisi sifatida tasvirlashgan.

Mehnatni muayyan turi bilan shug'ullanish. Bu turida erkaklar va ayollarning ijtimoiy jamiyatda ish borasida ham differansatsiyalarni uchratishimiz mumkin. Shunga ko'ra jamiyatda „erkaklarga xos” „ayollarga xos” deya kasblarni ham ajratiladi.

**Gender stereotiplarining asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

➤ **Tushuntirish funksiyasi**- eng sodd tuzilmasi hisoblanib, erkak va ayollarning xulq shakllari haqidagi stereotiplar asosida ularning xulq va xarakter xususiyatlarini belgilashga aytiladi.

➤ **Tartibga solish funksiyasi**- turli xildagi jinslarga mansub bo'lgan odamlarda kuzatiladigan xulq - atvor belgilarini o'zaro farq qilishiga aytiladi.

➤ **Farqlovchi funksiyasi**- bu funksiya stereotiplarning umumiy vazifasi hisoblanadi. Bir guruhdagi vazifalar kamaytiriladi va boshqa guruhdagi shaxslarning vazifalari maksimal darajada ortadi.

➤ **Restranksiya funksiyasi**- ijtimoiylashuv agentliklar va institutlari – oila maktab, tengdosh, adabiyot va ommaviy axborot vositalarida gender rollarini tanishtirish va u haqidagi malumotlarni tarqatish va tushuntirish vazifasini amalga oshiradi.

➤ **Himoyalovchi yoki o'zini o'zi oqlovchi funksiyasi** - ba'zi tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, gender stereotiplar har bir narsaning mavjud xolati, shuningdek, jinslar o'rtasidagi mavjud tengsizlik oqlash va himoya qilish borasi bilan bog'liq bo'lgan funksiyalardan biri hisoblanadi. Bu shaklida asosan jamiyatda mavjud bo'lgan denderga oid tengsizliklarni ochib berish hamda ularni xal qilishga qaratilgan.<sup>[1]</sup>

Oiladagi gender rollarining farzand tarbiyasidagi ta'sirini hozirgi vaqtda tadqiqotlarda asta - sekin o'rganilib kelinmoqda. Bolalar oilada gender identitiklikni shakllanishida nafaqat oila balki tashqi muhit jamiyatning o'rni ham beqiyos hisoblanadi. Ota - onalar bolalariga dengerga oid qarashlarini bevosita va bilvosta tarzda singdiradilar. Tadqiqotlarga qaraganda 100 nafar ota-onadan so'rovnoma olingan. Unga ko'ra, 60% qizlarning ota-onalari qizlarini qizlarga mos ravishta tarbiya qilganliklarini ya'ni uy ishlarini bilish, ovqat qilishni bilishi

kerakligini ta’kidlashgan. 50% ota-onalar esa o’g’il bollarini tashabbuskorlikka va mustaqililikka o’rgatishadi. Qizlardan esa yumshoqlilikva oila muhitiga moslashib ketishlarini kutishadi. 30% ota-onalar esa farzand tarbiyasida umuman neytral usullarni qo’llashadi. Bundan ko’rinib turibdiki, stereotiplarga asoslangan tarbiya jarayonida har bir jins vakili shu asosida tarbiya olishi kuzatiladi. Ammo, bazi ota-onalar bunday stereotiplarni rad etadilar va o’zlarining gender stereotiplariga asoslanmagan neytral usullarni qo’llashadi. Kelajakda bolalarning kasb tanlovlarida ham bu gender farqlari kuzatiladi. Ikki jins vakili uchun kasb tanlashda ham ularning jins turidan kelib chiqqan xolda ota-onalar ularga kasb tanlashlarini aytishadi. Bu jarayonda bola o’zining genderidan kelib chiqqan xolda o’z - o’zini anglashi va shuni qabul qilgan xolda hayot tanlovlarini amalga oshirishadi. Bu jarayonda ota-onalar tarbiya jarayonida quyidagi uchta yondashuvlardan birini qo’llaydi:

➤ An’anaviy gender roli modeli- qizlar uy yumushlariga o’g’il bolalar esa tashqi faoliyatga yo’naltiriladi.

➤ Aralash model - qiz bolalar va o’g’il bolalarga nisbatan teng imkoniyatlar yaratib berishadi, shunday sharoitda ham baribir gender stereotiplari saqlanib qolinadi.

➤ Gender neytral model- bunda bolalar qaysi jins vakili bo’lishidan qat’iy nazar tanlovlarini o’zlariga qo’yib berishadi va bolalar o’zlari qabul qiladilar.

Keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda tez - tez zo’ravonlik qurbonlari bo’lgan insonlar to’g’risidagi xabarlar tarqalmoqda. Buning asosiy sababi zo’ravonlik qurbonlarining bilimsizligi, o’zini xaq va xuquqini himoya qila olmasligida.<sup>[2]</sup>

**Zo’ravonlik** – tajovuzning eng og’ir shakli, boshqa bir shaxsga (ko’pincha yaqin insonga, oila a’zosiga) qasddan zarar yetkazish maqsadida qilingan harakat: tan jarohati yetkazish, qo’rqitish, tazyiq o’tkazish, ruhiy ta’sir etish, yakkalab qo’yish, jinsiy zo’rlik, nayrang ishlatish, bolalarni ro’kach qilish, moddiy cheklovlar va hokazolar bilan ifodalanadi.

O’tkazilgan so’rovnomalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, surunkali ravishda oiladagi zo’ravonlikka duchor bo’lgan odamning xatti-harakatlari va fe’l-atvori sezilarli darajada o’zgaradi. U qo’rquv, nosog’lom uyatchanlik va maxfiylikka aylanadi. Bundan tashqari, bunday xatti-harakatlar modellari oxir-oqibat nafaqat uyda "zolim" ishtirokida, balki har qanday sharoitda namoyon bo’ladi va uning salbiy ta’siri oxir oqibat suitsidal (o’zini joniga qasd qilish) harakatlariga olib kelishi mumkin.

## **XULOSA**

Ushbu maqolani xulosa qilib aytganda, oiladagi gender muammolari ularning farzandga ta’siri va ularning kelajakdagi rollariga ham ta’siri bo’ladi. Bunday turdagi stereotiplarning kelib chiqishi uzoq yillarga va tarixga taqalgani boisdan ularni o’zgartirish handa yoq qilishning iloji yoq.

**Gender zo’ravonlik qurboni bo’lib qolishning oldini olish uchun quyidagi xolatlarga e’tibor berish maqsadga muvofiq:**

- Oilada psixologik iqlimni yashilash, buning uchun ota-onada muomala madaniyati shakllangan bo’lishi;
- farzandlarga yoshligidan jinsiy tarbiya berish;
- balog’atga yetayotgan davrda ya’ni, o’smirlik davridagi bolalarga oila etikasi, oila psixologiyasi, oila xuquqi, reproduktiv salomatlik to’g’risida bilim berish;
- nizoli, muammoli oilalardagi psixologik muhitni sog’lomlashtirishda mutaxassislar, mahalla faollaridan foydalanish;
- xududlarda ajralish, zo’ravonlik, oilada sodir bo’ladigan jinoyatchilik, suitsid kabi noxush xolatlarning oldini olish va ularni kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni o’tkazish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azizova N.A. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Toshkent 2007. (47- 53 betlar)
2. Daminova M. O’smirlarda gender identitilikni shakllanishida ta’lim, oila va muhit va stereotiplarning o’rni. Maqola 2025.
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender\\_stereotiplar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_stereotiplar)